



TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT

Allayorova S

QarDU talabasi

Annonatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davri madaniyati, san’ati va sport o’yinlari borasida fikr mulohazalar berilgan.

Tayanch so’zlar: madaniyat, san’at, sport, maqom, milliy musiqa, kurash ko’pkari, tomosha san’ati.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo’lga kiritgan dastlabki yillardan boshlab, yurtimiz tarixini yozma manbalar asosida tadqiq etishga e’tibor yanada ortdi. Shu bois, ajdodlarimiz tomonidan uzoq o’tmishda yaratilgan har bir madaniy-ma’naviy merosimizni o’rganish va uni yosh avlodlarimizga targ’ib bugungi kundagi o’ta dolzarb masalalar qatoriga qo’yildi.

O’z navbatida Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixida ilm-fan, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo’shgan ajdodlarimizning tabarruk nomlari qayta tiklandi va tiklanmoqda. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri, bobomiz Sohibqiron Amir Temurdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Amir Temur shaxsiga hurmat ko’rsatilib, Sohibqiron bobomiz va temuriylar davri madaniyatini o’rganish, shuningdek, Amir Temur davrining nafaqat O’zbekiston, balki dunyo xalqlari davlatchiligida tutgan o’rnining o’ziga xos xususiyatlarini ochib berish va bu jihatlarining yoshlarimiz tarbiyasidagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda¹.

Tarixdan, bizga ma’lumki, Amir Temur mohir sarkarda va davlat arbobi bo’lishi bilan bir qatorda, ilm-fan, san’at va madaniyatning homiysi sifatida ham nom qozongan. Shu bois tarixiy manbalar, Amir Temur hukmronlik qilgan yillarda madaniyat, ilm-fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa va barcha san’at turlari yuqori cho’qqiga ko’tarilganligidan guvohlik beradi.

¹ <https://kun.uz/uz/news/2018/04/09/angi-sajelik-manzili-amir-temur-dunega-kelgan-huza-ilgor-kislogi>



Amir Temur markazlashgan davlatga asos solish bilan birgalikda, uni har tomonlama mustahkamlab, rivojlantirib, shon-shuhratini butun dunyoga yoyilishiga sababchi bo'lgan va buyuk saltanatning hukmdori sifatida xalqlarni birlashtirdi.

Amir Temur shaharlarni obod qilishga ham asosiy e'tiborini qaratib, dastlab, o'zi tug'ilib o'sgan Shahrisabzda mahobatli Oqsaroyni va ko'rkam masjidlar qurdirgan bo'lsa, poytaxt Samarqandda esa ulug'vor, hashamatli binolar, Turkiston, Damashq va Tabrizda masjidu madrasalar barpo etish ishlarida shaxsan bosh-qosh bo'lganlar.

Ushbu davrda Samarqand va Hirotidan tashqari Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Balx, Mashhad, Sheroz kabi shaharlarda ham madaniy markazlar barpo etilgan bo'lib, ularga Amir Temurning tashabbusi bilan turli mamlakatlardan ko'plab ilm-fan namoyondalari taklif qilingan edi. Shu ma'noda, biz sohibqiron Amir Temurni temuriylar davri Renessansiga asos solgan shaxs deyishimiz mumkin.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning Movarounnahrda qadimdan mavjud an'analarni davom ettirib, janglarda erishgan har bir g'alabasi bayram, sayl, to'ylar ko'rinishida nishonlangani qayd etilgan. Ziyofat va bazmlarga kelgan har bir aziz mehmonni esa sovg'a-salomlar qilib siylangan

Sharofiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo va boshqa o'rta asr muarrixlarining asarlarida bu davrda o'tkazilgan har bir tadbirlarni sozanda-yu xonanda va raqqosalarsiz tasavvur etish qiyin bo'lganligi borasidagi ma'lumotlar uchraydi.

Demak, saltanatning har bir burchagidan kelgan san'atkorlarning xizmati bilan ommaviy bayramlar va to'ylar bilan yanada fayzli o'tgan. Madaniyalararo to'qnashuv, integratsiya jarayonlari bu an'analarning rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga zamin yaratgan.

Shuningdek, tadqiqotlarda Amir Temurning janglarda qo'lga kiritgan g'alabasiga bag'ishlab yoki chet eldan kelgan elchilarni kutib olish, shahzodalar to'yi munosabati bilan uyushtirilgan ommaviy bayramlar borasida asosli ma'lumotlar misol tariqasida keltirib o'tilgan².

² O'ljayeva Sh. Amir Temur davrida to'y-tomosha va xalq bayramlari <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/577144985986256/>



Ushbu davrda o’tkazilgan bayramu bazmlar “xushovoz changchilar, pardasoz kamoncha choluvchilar, oy yuzli soqiylar,... shodlik taratuvchi mug’anniylar” xizmatlari bilan yanada fayzli o’tgan deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur va temuriylar davri mutafakkirlari ijodida musiqa san’ati. Sohibqiron yulduzi 2020-yil 2-son 26-29 betlar.
2. Fitrat. O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T.: 1993 yil
3. Shohistaxon Uljayeva Amir Temur davrida to’y tomosha va xalq bayramlari.<https://www.facebook.com/groups/246149995752425/posts/577144985986256/>
4. <https://kun.uz/uz/news/2018/04/09/angi-sajelik-manzili-amir-temur-dunega-kelgan-huza-ilgor-kislogi>.